<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari	812
<i>Shakarboeva Shaxnoza Abdulakimovna</i>	
Talabalarda hunarmandchilik ko'nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	816
<i>Sharipova Go'zal Sodiqovna</i>	
Faxriyorning doston yaratishdagi mahorati va ularning badiiylilik xususiyatlari	820
<i>Tangirova Dilbar</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish.....	824
<i>Turanova Iroda Egamberdi qizi</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligini tashkil etishga o'rgatishning metodik asoslari	827
<i>Turdiqulova Luiza Zayniddinovna</i>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	831
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</i>	
Aqli zaif o'quvchilar bilan psixokorreksion ishlarda qo'llaniladigan metodlar.....	835
<i>Usmanova Nilufar Ilhom qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishda sun'iy intellektidan foydalanish	840
<i>Xayitova Firuza Abdullayevna</i>	
Oliy o'quv yurtlarida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion hamkorlik modellari samaradorligi	844
<i>Xaqqulov Komil Yusupovich</i>	



Ta'limda raqamli texnologiyaning o'rni.....	847
<i>Zebuniso Nurtayeva Murodali qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .	852
<i>Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna</i>	
Направленное обучение борцов самостоятельному управлению нагрузкой в тренировке по частоте сокращений сердца	856
<i>Алишер Базарбаевич Ашуралиев</i>	
Педагогические возможности развития креативного мышления студентов педагогических вузов	859
<i>Каримова Барно Эргашевна</i>	
Инклюзивное образование: интеграция теоретических основ и практических методов для формирования эффективной образовательной среды	862
<i>Л. З. Намазбаева</i>	
Влияние славянской мифологии на русскую литературу	866
<i>Хайдаров Рамазон Комилжон угли</i>	
Совершенствование методики преподавания русского языка в нефилологических аспектах	871
<i>Ходжибекова М. А.</i>	
Мaktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida qurish-yasash faoliyatlarini tashkil etishning ahamiyati.	875
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyachi faoliyatining mazmuni.....	878
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Творческий подход к формированию личности будущего воспитателя	881
<i>Халкузиева Дилноза Баходировна</i>	
Мaktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.....	884
<i>Karimova Umida Sharopovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuvni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	887
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Psixolog talabalarda liderlik kompetentligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	890
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi</i>	
Роль самостоятельного обучения в формировании творчества учащихся	894
<i>Курбанова Бузайнаб Нурмухаммадиевна</i>	
Ingliz tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasi	899
<i>Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi</i>	
Harbiy ta'lim mashg'ulotlarida modulli texnologiyalardan foydalanish.....	904
<i>Usmonov Adxam Abduxamidovich</i>	
The Impact of Family Celebrations on Stress, Emotional Well-Being, and Human Happiness.....	907
<i>Khasanboy U. Abdusamatov</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish usullari.....	917
<i>Shaymardon Norov</i>	
Мaktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini shakllantirish	927
<i>Z. M. Zarifova</i>	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHINI SHAKLLANTIRISH

Z. M. Zarifova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini shakllantirish jarayoni o'rganilgan. Tadqiqot davomida bolalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin faoliyati, ota-onalar va tarbiyachilarning ta'siri, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda raqamli ta'lim vositalarining o'rni tahlil qilingan. Eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar va o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bolalarning mantiqiy fikrlash, diqqat va xotira qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi samarali hamkorlik bolalarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonini jadallashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, intellektual rivojlanish, bilish qobiliyati, o'yin metodlari, interfaol ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ota-onalar ishtiroki, mantiqiy fikrlash, xotira, raqamli ta'lim.

Abstract: This article explores the process of fostering the intellectual development of preschool-aged children. The study examines the impact of play-based activities, the involvement of parents and educators, innovative pedagogical technologies, and digital learning tools on children's cognitive abilities. The experimental results indicate that integrating interactive methods and play elements into the educational process significantly improves logical thinking, attention, and memory. Furthermore, the research highlights the positive effect of effective collaboration between parents and educators on the intellectual development of children. Based on the findings, practical recommendations have been proposed to enhance the cognitive development of preschoolers.

Key words: preschool education, intellectual development, cognitive abilities, play-based methods, interactive learning, pedagogical technologies, parental involvement, logical thinking, memory, digital learning.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс формирования интеллектуального развития детей дошкольного возраста. В ходе исследования были проанализированы влияние игровой деятельности, роль родителей и воспитателей, инновационные педагогические технологии и цифровые образовательные инструменты в развитии познавательных способностей детей. Экспериментальные результаты показывают, что использование интерактивных методов и игровых элементов в образовательном процессе значительно улучшает логическое мышление, внимание и память у детей. Кроме того, выявлено, что эффективное взаимодействие между родителями и педагогами оказывает положительное влияние на интеллектуальное развитие детей. На основе полученных данных разработаны практические рекомендации по ускорению познавательных процессов у дошкольников.

Ключевые слова: дошкольное образование, интеллектуальное развитие, познавательные способности, игровые методы, интерактивное обучение, педагогические технологии, участие родителей, логическое мышление, память, цифровое обучение.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi ularning kelajakdagi muvaffaqiyati hamda ijtimoiy muhitga moslashuvi uchun mustahkam poydevor hisoblanadi. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni o'rganadi, bilish qobiliyatlari shakllanadi va tafakkur tizimi rivojlanadi. Intellektual rivojlanish bolaning fikrlash, eslab qolish, tasavvur qilish va muammolarni hal qilish kabi aqliy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, samarali metodlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar ilmiy jihatdan tahlil etiladi.¹

1 Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.



Bolalarning intellektual rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatoriga biologik va genetik omillar, oila muhiti va tarbiya, atrof-muhit va ijtimoiy tajriba, shuningdek, o'yin faoliyati va qiziqishlar kiradi. Genetik omillar bolaning intellektual salohiyatiga ma'lum darajada ta'sir etsa-da, muhit va tarbiya jarayoni ushbu salohiyatning to'liq ro'yobga chiqishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila muhitidagi ta'lim darajasi, muloqot sifati hamda ota-onalarning pedagogik savodxonligi bolaning fikrlash va tasavvur doirasini kengaytiradi. Erta yoshdan boshlab kitob o'qib berish, savol-javoblar, erkin fikr almashinuvi bolada mantiqiy tahlil va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalari, o'rtoqlar va pedagoglar bilan muloqot qilish orqali bola yangi bilimlarni o'zlashtiradi, jamiyatdagi ijtimoiy rolini anglay boshlaydi. O'yin faoliyati esa, ayniqsa, mantiqiy o'yinlar, tasviriy san'at mashg'ulotlari va interfaol texnologiyalar orqali bola aqliy faoliyatining faol rivojlanishiga xizmat qiladi.²

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik hamda mantiqiy o'yinlar bolalarda mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi. Masalan, pazllar va mozaikalar tafakkurni chuqurlashtirsa, rolli o'yinlar ijodiy fikrlash va ijtimoiy muhitga moslashuvchanlikni kuchaytiradi, matematik o'yinlar esa tahlil qilish va hisoblash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik yondashuvlar – STEAM (Science – Technology – Engineering – Art – Mathematics), Montessori metodikasi, Rejggio Emilia yondashuvi – bolalarda mustaqil o'rganish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, amaliy tafakkur kabi kompetensiyalarni shakllantirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Nutq va muloqotni rivojlantirish ham bolalarning intellektual taraqqiyotida bevosita rol o'ynaydi. She'r va hikoyalarni yod olish, mantiqiy asosda hikoya tuzish, savol-javoblar orqali fikr almashish bolaning so'z boyligi, tushunchaviy tafakkuri va aqliy faolligini rivojlantiradi. Bu esa uning mustaqil fikr yuritish, muammolarni tahlil qilish va kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlashga olib keladi.

Intellektual rivojlangan bola mustaqil fikrlay oladi, muammolarni hal qilishga intiladi, yangi bilimlarni tez o'zlashtiradi, ravon va aniq nutqga ega bo'ladi, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini namoyon eta oladi. Shu tufayli u maktab bosqichiga oson moslashadi. Bunday bolalar keyinchalik kasb-hunar egallashda, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishda va muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishda salohiyatga ega bo'ladi. Intellektual rivojlanishni ta'minlashda ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi omil hisoblanadi. Keng qamrovli metodlar, qulay tarbiyaviy muhit va zamonaviy ta'lim yondashuvlari orqali bolalarning bilish qobiliyatlarini samarali rivojlantirish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bu jara-yonning dolzarbligini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, erta yoshdagi ta'lim bolaning keyingi intellektual rivojlanishiga bevosita va kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, AQShda olib borilgan "Perry Preschool Project" tadqiqoti maktabgacha yoshdagi bolalarga sifatli ta'lim berish ularning kelajakdagi akademik yutuqlari, ijtimoiy moslashuvi hamda kasbiy muvaffaqiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Shuningdek, Rossiya va Yevropa mamlakatlarida o'tkazilgan psixologik izlanishlar natijalari o'yin orqali ta'lim jarayonining bolalar bilish faoliyatini faollashtirish va tafakkurni rivojlantirishdagi samaradorligini asoslab bergan.

O'zbekistonda ham maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha qator izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6098-sonli Farmoniga asosan maktabgacha ta'lim muassasalari soni ko'paytirilib, ta'lim dasturlari yangilanmoqda.³ Shu bilan birga, ilg'or pedagogik metodikalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini baholash

Bolalarning intellektual rivojlanish darajasini aniqlash uchun turli baholash usullari qo'llaniladi. Ushbu usullar bolaning bilish salohiyatini baholash hamda rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Kuzatuv usuli

Tarbiyachilar va ota-onalar bolaning faoliyatini kuzatish orqali uning qiziqishlari, fikrlash darajasi va bilish qobiliyatlarini aniqlashlari mumkin. Bola qanday o'yinlarni afzal ko'radi, qanday savollar beradi, muammolarni qanday hal etadi – bu kabi kuzatishlar orqali uning tafakkur darajasini baholash mumkin.

² Piaget, J. (1952). The origins of intelligence in children. International Universities Press.

³ Montessori, M. (1964). The discovery of the child. Holt Paperbacks.



Test va topshiriqlar

Bolalarning mantiqiy fikrlash, xotira va diqqat qobiliyatlarini baholashda maxsus testlardan foydalaniladi.

Masalan:

- Rasmi mantiqiy ketma-ketlikni to'ldirish;
- Oddiy matematik masalalarni yechish;
- Matn yoki hikoyani eslab qolish va uni qayta bayon qilish.

Psixologik baholash metodlari

Bolalarning intellektual rivojlanishining turli jihatlarini aniqlash uchun Veksler testi, Ravenning progressiv matritsalar kabi psixologik testlar qo'llaniladi. Ushbu metodlar bolaning tafakkur darajasini o'lchash va unga mos ta'lim strategiyalarini belgilashda samaralidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual rivojlanishining ijtimoiy ahamiyati

Bolalarning intellektual rivojlanishi nafaqat ularning shaxsiy hayotdagi muvaffaqiyatiga, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan bolalar kelajakda ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy yo'nalishlarda yetakchi shaxslar bo'lib shakllanishadi. Ularning tafakkuri, tahliliy fikrlash qobiliyati va ijodkorligi innovatsiyalar, ilm-fan va iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalari, pedagoglar va ota-onalar birgalikda bolalarning bilish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan ta'lim muhitini yaratishlari lozim.

Quyidagi ustuvor choralar bu borada muhim ahamiyatga ega:

- Ilmiy asoslangan metodlardan foydalanish – zamonaviy innovatsion texnologiyalar va ilg'or pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish;
- Oilaviy tarbiyaning rolini kuchaytirish – ota-onalarni bolalarning ta'limi va intellektual rivojiga faol jalb etish;
- Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish – intellektual rivojlanishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni joriy qilish;
- Erta yoshdan tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish – bolalarni ilm-fan, texnologiya va san'at sohalariga qiziqtirish orqali ijodiy salohiyatini kengaytirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi ularning keyingi bosqichlardagi ta'limi, kasb-hunarga yo'naltirilishi va ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini belgilovchi mustahkam poydevor hisoblanadi. Erta ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish orqali har tomonlama yetuk va barkamol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, jamiyat taraqqiyotiga amaliy hissa qo'shish imkoniyati yaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini o'rganish hamda samarali metodlarni ishlab chiqish maqsadida kompleks tadqiqot usullaridan foydalanildi. Metodologik yondashuv quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik usullarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun quyidagi ilmiy vazifalar belgilab olindi:

- bolalarning intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilish;
- intellektual rivojlanishni baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarning samaradorligini empirik tekshirish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida amalda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Bolalarning mantiqiy tafakkuri, eslab qolish qobiliyati, muammoni hal qilish strategiyalari va ijodiy fikrlash darajasini baholash uchun quyidagi psixodagnostik vositalar tanlab olindi:

- Veksler testi – bola intellektual salohiyatining umumiy darajasini aniqlash;
- Ravenning progressiv matritsalar – bolaning mantiqiy fikrlash darajasini o'lchash;⁴
- Esab qolish testi – bola xotira qobiliyatini baholash.

Tadqiqot doirasida eksperimentlar va so'rovnoma o'tkazildi, ularning natijalari statistik tahlil asosida qayta ishlanib, o'rtacha ko'rsatkichlar va dispersiya analizi bajarildi. Har ikkala – eksperimental va nazorat guruhlari-dagi bolalarning natijalari taqqoslab chiqildi, bu orqali foydalanilgan metodlarning samaradorligi aniqlanishiga erishildi.

4 Tohirova, S. X. (2019). Erta yoshdagi bolalar uchun ta'limning asosiy tamoyillari. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.



Tahlil jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

- kuzatuv natijalari asosida bolalarning intellektual rivojlanish tendensiyalari belgilandi;
- eksperimental va nazorat guruhlar natijalari o'zaro solishtirilib, innovatsion metodlarning samaradorligi baholandi;
- ota-onalar va tarbiyachilar bilan o'tkazilgan so'rovnoma umumlashtirilib, real ehtiyojlar va muammolar aniqlab berildi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning intellektual rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiluvchi quyidagi yo'nalishlarda amaliy qo'llanilishi mumkin:

- maktabgacha ta'lim dasturlarini zamon talablari asosida takomillashtirish;
- tarbiyachilar uchun zamonaviy pedagogik metodlarni o'rgatish bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish;
- ota-onalar uchun bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga oid tavsiyalarni ishlab chiqish;
- o'yin va interfaol metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish.

Mazkur metodologiya orqali bolalarning intellektual rivojlanish darajasi empirik baholandi va samarali pedagogik yondashuvlar aniqlandi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda, kelgusida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ushbu metodologik asoslar maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini chuqur o'rganish va ularning rivojlanishini ta'minlovchi samarali strategiyalarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.⁵

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarning bilish jarayoni ustida olib borilgan kuzatuvlar asosida ularning tafakkur va intellektual faoliyatidagi asosiy tendensiyalar aniqlandi. Faol o'yinlar orqali o'rganish, xususan, konstruktor va rolli o'yinlar bolalarning mantiqiy fikrlashini faollashtiruvchi muhim omil sifatida baholandi. Muloqot orqali o'rganish esa bolalarning so'z boyligini kengaytirib, fikrlash salohiyatini oshirishi kuzatildi. Ota-onalar yoki tarbiyachilar bilan faol suhbat olib borgan bolalarda mantiqiy bog'liqliklarni tezroq anglash holatlari aniqlandi. Shuningdek, sensor va harakat faoliyati – chizish, loydan shakl yasash, ranglar bilan ishlash kabi mashg'ulotlar bolalarning tafakkurini chuqurlashtirib, ijodiy fikrlashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida intellektual rivojlanishni baholash uchun qo'llangan testlar natijalari quyidagicha bo'ldi: Veksler testi bo'yicha eksperimental guruh bolalari o'rtacha 12 foiz yuqori natija ko'rsatdi. Ravenning progressiv matritsalar testi esa eksperimental guruhdagi bolalar nazorat guruhiga nisbatan 15 foiz yuqoriroq mantiqiy fikrlash darajasini namoyon etdi. Eslab qolish testi esa eksperimental guruh vakillari so'z va rasm shaklidagi ma'lumotlarni nazorat guruhiga qaraganda 20 foiz yaxshiroq eslab qoldilar.

Mazkur natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi kompleks yondashuvni talab qilayotganini tasdiqlaydi. Bilim olish jarayoni faqatgina an'anaviy metodlar bilan cheklanmasdan, innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan boyitilishi lozim. Eksperimentlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, o'yin, muloqot va eksperimental ta'lim metodlari intellektual rivojlanishni shakllantirishda eng samarali vositalar hisoblanadi; ikkinchidan, ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi faol hamkorlik bolalarning bilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; uchinchidan, raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanish bolalarning tafakkurini kengaytiradi hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari kelajakda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va bolalarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga asos bo'la oladi.

Muhokama

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u turli omillarning o'zaro ta'siri asosida yuzaga chiqadi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bolalarning bilish qobiliyatlari o'yin, muloqot va tajriba orqali shakllanadi.⁶

O'yin faoliyatining ta'siri ayniqsa kuchli ekani kuzatildi. Bolalar o'yin orqali mustaqil qaror qabul qilishni, muammolarni hal qilishni, mantiqiy va ijodiy fikrlashni o'zlashtiradilar. Stol o'yinlari, boshqotirmalar va konstruktorlar bolalarning analitik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu kuzatuvlar Vygotsky va Piaget tomonidan ilgari surilgan rivojlanish psixologiyasi nazariyalari bilan to'liq mos keladi. Ularning ta'kidlashicha, bola tajriba va ijtimoiy aloqalar orqali rivojlanadi. O'yin orqali o'rganish bolalarning diqqat va xotirasini shakllantirishda juda samarali vosita ekanligi eksperimentlar orqali tasdiqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning intellektual rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uy sharoitida olib borilgan muloqotlar bolalarning so'z boyligini kengaytiradi va ularni fikr almashish jarayoniga faol jalb etadi. Tarbiyachilar tomonidan qo'llanilayotgan interfaol metodlar o'rganish jarayonini sezilarli tezlashtiradi. Ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik bolani intellektual

⁵ Islomov, R. T. (2015). Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Tashkent: O'qituvchi nashriyoti.

⁶ Islomov, R. T. (2015). Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Tashkent: O'qituvchi nashriyoti.



tual rivojlantirish bo'yicha strategiyalarni takomillashtirish imkonini beradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, bola faqat bog'cha yoki uy sharoitida emas, balki ushbu ikki muhitning uyg'unlashgan holatida to'liq rivojlanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarning samaradorligi ham tadqiqot doirasida o'rganildi. Interfaol usullar orqali bolalarning diqqat va xotira qobiliyatlarining 15–20 foizga oshgani, raqamli texnologiyalar (mobil ilovalar, virtual o'yinlar) yordamida ta'lim olgan bolalarning yangi ma'lumotlarni tezroq o'zlashtirgani aniqlangan. Eksperiment va kuzatuv asosida olib borilgan tajribaviy ta'lim bolalarga sabab–oqibat munosabatlarini tushuntirishda ancha samarali bo'ldi. Ushbu natijalar Dewey va Montessori metodologiyalari bilan uyg'unlashadi. Ularning fikricha, bola faqat nazariy emas, balki amaliy tajriba asosida ham faol rivojlanadi. Tadqiqotimiz ham bu g'oyaning dolzarbligini tasdiqlaydi.⁷

Tadqiqot natijalariga asosanib, kelajakda quyidagi yo'nalishlarda chuqurlashtirilgan izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish;
- intellektual rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi genetik va ijtimoiy omillarni chuqur tahlil qilish;
- xalqaro ta'lim tizimlaridagi ilg'or yondashuvlarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish.⁸

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi ko'p omilli jarayondir. Unda o'yin va interfaol metodlar asosiy rol o'ynaydi, ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlik intellektual rivojlanishni tezlashtiradi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalardan me'yorida foydalanish esa bolalarning bilish salohiyatini kuchaytirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Kelajakda individual yondashuvlarga asoslangan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali bolalarning intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini shakllantirish uzluksiz va kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatdi. Bilish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida o'yin faoliyati, ota-onalar va tarbiyachilarning hamkorligi, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda raqamli ta'lim vositalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot doirasida olingan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. O'yin faoliyati va interfaol metodlar bolalarning tafakkurini faollashtirib, ularning mantiqiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois ta'lim jarayonida o'yin elementlaridan keng foydalanish zarur.
2. Ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlik bolalarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uy va maktabgacha ta'lim muassasasi muhitining uyg'unligi bolalarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – xususan interfaol metodlar, tajribaga asoslangan o'rganish, vizual va audial ta'lim vositalari – bolalarning diqqat, xotira va mantiqiy tafakkurini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.⁹
4. Raqamli texnologiyalardan me'yorida foydalanish bolalarning bilish jarayonini jadallashtiradi. Shu bilan birga, ortiqcha foydalanish ijtimoiy muloqot ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi inobatga olinishi kerak.
5. Intellektual rivojlanishni baholash tizimini takomillashtirish kelgusida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun individual rivojlanish trayektoriyalarini ishlab chiqish muhimdir.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

- o'yin va eksperimentga asoslangan o'qitish metodlarini keng joriy etish;
- ota-onalarni bolalarning intellektual rivojlanishida faol ishtirok etishga rag'batlantirish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish;
- raqamli ta'lim vositalaridan maqsadli va o'rinli foydalanishni ta'minlash.

Kelgusida ushbu tadqiqot natijalari asosida intellektual rivojlanish jarayonini yanada chuqur o'rganish, yangi innovatsion metodlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, bolalarning bilish salohiyatini yanada samarali rivojlantirish va ularni keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlash imkonini beradi.

7 Islomov, R. T. (2015). Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Tashkent: O'qituvchi nashriyoti.

8 Islomov, R. T. (2015). Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Tashkent: O'qituvchi nashriyoti.

9 Shamsutdinova, N. Z. (2018). Bolalar ta'limi va tarbiyasining asoslari. Toshkent: Ta'lim.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
2. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. International Universities Press.
3. Montessori, M. (1964). *The Discovery of the Child*. Holt Paperbacks.
4. Lillard, A. S. (2017). *Montessori: The Science Behind the Genius* (3rd ed.). Oxford University Press.
5. Tohirova, S. X. (2019). *Erta yoshdagi bolalar uchun ta'limning asosiy tamoyillari*. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
6. Islomov, R. T. (2015). *Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
7. Shamsutdinova, N. Z. (2018). *Bolalar ta'limi va tarbiyasining asoslari*. Toshkent: Ta'lim.
8. Zarifova, Z. M. (2024). *Pedagoglarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda qo'yiladigan ma'naviy-axloqiy talablar*. Scientific Impulse, 2(20), 512–517.
9. Зарифова, З. М. (2024). *Образование и воспитание педагогов и детей в дошкольных образовательных организациях: сотрудничество с родителями*. O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 3(29), 289–294.
10. Zarifova, Z. M. (2024). *Education and Upbringing of Teachers and Children in Preschool Educational Organizations: Cooperation with Parents*. Journal of Innovations in Scientific and Educational Research, 7(4), 139–143.
11. Zarifova, Z. M. (2024). *Formation of Management Culture Among Preschool Education Practitioners*. PEDAGOG, 7(4), 590–597.
12. Zarifova, Z. M. (2025). *Murabbiylikdan rahbarlikka: pedagoglar uchun boshqaruv madaniyatini shakllantirish strategiyalari*. Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal, 3(2).
13. Zarifova, Z. M. (2025). *Effective Methods for Developing Empathy and Emotional Intelligence in Preschool-Aged Children*. Bulletin News in New Science Society International Scientific Journal, 2(2), 287–294.
14. Zarifova, Z. M. (2025). *The Impact of Developmental Games on Children's Thinking in Preschool Educational Institutions*. Bulletin News in New Science Society International Scientific Journal, 2(2), 273–279.
15. Zarifova, Z. M. (2025). *The Role of Educators in Promoting a Healthy Lifestyle in Preschool Educational Institutions*. Bulletin News in New Science Society International Scientific Journal, 2(2), 280–286.
16. Zarifova, Z. M. (2025). *Zamonaviy sharoitlarda talablarning boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlari*. Образование, наука и инновационные идеи в мире, 63(1), 265–281.
17. Zarifova, Z. M. *Theoretical Aspects of the Development of Managerial Culture of Future Educators*.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.